



**Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi**

**2018 yilning yanvar – oktyabr oylarida  
QURILISH ISHLARI**

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami 1 941,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,8 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 375,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 19,3 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,5 %ni

tashkil etdi.

Kichik korhona va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 44,7 %i yoki 867,6 mlrd.so'm to`g`ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 36,0 % yoki 698,4 mlrd.so'm to`g`ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,7 %ni tashkil etdi.

**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi -  
**1 941,9 млрд.сум**

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi -  
**19,3 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi -  
**44,7 %**

Norasmiy sektor ulushi -  
**36,0 %**

**Yirik pudrat tashkilotlari**

- hajmi -  
**375,9 mlrd.so'm**
- o'sish surati -  
**132,5 %**


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

- hajmi -  
**867,6 mlrd.so'm**
- o'sish surati  
**106,6 %**

**Norasmiy sektor**

- hajmi -  
**698,4 mlrd.so'm**
- o'sish surati -  
**91,7 %**

### Yanvar - oktyabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari





Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,9 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi

ko`rsatkichga nisbatan 7,6 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 26,2 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 9,7 % punktga ko`paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 4,9 % to`g’ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga kamaydi.


## Yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1,5 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko`rsatkichga

nisbatan 3,2 % punktga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 47,7 % (3,2 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 52,2 %ni tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-oktyabrida faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 64,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 35,7 % (2,7 % puktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,3 % punktga kamaydi va 29,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 70,4 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 11,3 % punktga ko'paydi.



**Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

Sh.Gaipov  
(76) 223-07-15